



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 24-oktabr

580-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 18-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PQ–346- son qarori ijrosi haqida” 487-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 18-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PQ–346-son qarori ijrosi haqida” 487-6-0-Q/24-sonli qarorini ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 18-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PQ–346-son qarori ijrosi haqida” 487-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining Ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari agentligi huzurida davlat muassasasi shaklida Fan olimpiadalari markazini (keyingi o‘rinlarda – Markaz) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullanganligi;

Markazning asosiy faoliyat yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilanganligi;

qobiliyatli hamda fanlarni chuqur o‘rganishga qiziqadigan yoshlarni aniqlash va seleksiya qilish, ulardagi iqtidorni yanada rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi;

o‘quvchilarni fan olimpiadalariga maqsadli tayyorlashga oid o‘quv dasturlari, adabiyotlar, metodik tavsiyalar va qo‘llanmalar ishlab chiqishi;

fan olimpiadalariga tayyorlash bo‘yicha trenerlar jamoasini, shu jumladan, xorijiy mutaxassislar, olimlar va professor-o‘qituvchilarni jalb qilgan holda shakllantirish, ularning samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yishi va rag‘batlantirishi;

xalqaro va respublika miqyosida maktab fanlari bo‘yicha o‘tkaziladigan olimpiada, musobaqa va tanlovlarni tashkil qilish va muvofiqlashtirishi;

fan olimpiadalarida yuqori natijalarga erishgan o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularning iqtisodiyot va ilm-fanning ustuvor yo‘nalishlarida, shu jumladan, maktab ta‘limi tizimida faoliyat olib borishiga ko‘maklashishi;

olimpiadalar o'tkazish bo'yicha xalqaro hamkorlik aloqalarini kengaytirish, ushbu sohadagi ilg'op xorijiy tajribalarni ommalashtirishi;

fan olimpiadalarini tapg'ib qilish, O'zbekistonlik o'quvchilarning xalqaro fan olimpiadalaridagi ishtiroki va natijalari haqidagi ma'lumotlarni keng jamoatchilikka yetkazib borishi; belgilab qo'yilishicha:

a) Markazning cheklangan boshqaruv shtat birliklari soni 27 tani tashkil qilishi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimining umumiy shtat birliklari doirasida shakllantirilishi;

b) Markaz xodimlariga Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash shartlari tatbiq etilishi;

bunda: Markaz direktorining lavozim maoshi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi departamenti direktori lavozim maoshiga, direktor o'rinbosarining lavozim maoshi vazirlik boshqarma boshlig'i lavozim maoshiga, tarkibiy bo'linmalar boshliqlarining lavozim maoshi vazirlik bo'lim boshlig'i lavozim maoshiga, boshqa mutaxassis xodimlarning lavozim maoshi vazirlikning tegishli darajadagi mutaxassislari lavozim maoshiga tenglashtirilishi;

Markaz xodimlariga ustamalar, mukofotlar va boshqa rag'batlantiruvchi to'lovlar ta'lim sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan to'lanishi;

d) Markaz faoliyati Davlat budjeti mablag'lari, ta'lim sohasida islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi, Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, pullik xizmat ko'rsatishdan tushgan mablag'lar va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan, 2027-yildan boshlab bosqichma-bosqich xo'jalik faoliyatini yuritishdan tushgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilishi;

belgilanishicha, o'quvchilarning xalqaro olimpiadalarda munosib ishtirokini ta'minlash uchun 2025-yildan boshlab Markaz tomonidan: 5-8-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan olimpiadalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, yuqori natijalarni qayd etgan iqtidorli o'quvchilar bazasi shakllantirilishi va ularni xalqaro olimpiadalarga maqsadli tayyorlash yo'lga qo'yilishi;

har bir fan yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturlari, adabiyotlar, metodik tavsiyalar, qo'llanmalar va jurnallar yaratilib, ular doimiy ravishda xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda xalqaro olimpiadalar metodologiyasi asosida takomillashtirib borilishi;

o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlovchi trener-o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratilishi, ularga yangi metodikalar o'rgatib borilishi;

fan olimpiadalari bo'yicha milliy terma jamoalarning xorijiy davlatlar terma jamoalari bilan qo'shma yig'inlar o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yilishi;

o'quvchilar uchun xalqaro olimpiadalarda ruhiy bosimni yengish bo'yicha seminarlar hamda motivatsion treninglar tashkil qilinishi;

asosiy fan olimpiadalarining hududiy bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etgan iqtidorli yoshlar uchun "intelektual oromgohlar" tashkil etilishi; shunday tartib o'rnatiladiki, unga muvofiq:

a) xalqaro fan olimpiadalari nufuzli xalqaro olimpiadalar, xalqaro olimpiadalar va mintaqaviy xalqaro olimpiadalarga bo'linishi va ushbu olimpiadalar g'oliblari, ularning o'qituvchilari va terma jamoalar rahbarlari 1-ildovaga muvofiq miqdorlarda bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanishi;

b) nufuzli xalqaro olimpiadalar, xalqaro olimpiadalar va mintaqaviy xalqaro olimpiadalarining ro'yxati vazirlar mahkamasi tomonidan tasdiqlanishi;

d) 2025-yil 1-yanvardan boshlab nufuzli xalqaro olimpiadalarda ishtirok etadigan terma jamoalar rahbarlarini jamoaning natijasiga qarab rag'batlantirish tartibi joriy etilishi;

bunda: terma jamoalar rahbarlari nufzli xalqaro olimpiadalarda erishilgan har bir oltin, kumush, bronza medallari uchun tegishli bazaviy hisoblash miqdorining 35, 25, 15 baravari miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanishi;

terma jamoalar rahbarlarini pul mukofoti bilan taqdirlash 2027-yilga qadar - Davlat budjetidan, 2027-yildan boshlab - Markazning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi;

e) 2025-yil 1-yanvardan boshlab: asosiy fan olimpiadalarining hududiy va Respublika bosqichlarida hamda xalqaro olimpiadalarda g'oliblikni qo'lga kiritgan o'quvchilar, ularning o'qituvchilari va terma jamoalar rahbarlariga to'lanadigan pul mukofotlari va beriladigan sovg'alar daromad solig'idan ozod etilishi;

terma jamoalar rahbarlari, kuzatuvchilari va o'quvchilarning xalqaro olimpiadalardagi ishtirokini ta'minlash bilan bog'liq shu jumladan sutkalik yashash, sug'upta va transport xarajatlari Davlat budjetidan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga ajratilgan mablag'lar hisobidan qoplanishi;

xalqaro olimpiadalarda qatnashish uchun jalb etiladigan o'quvchilar o'quv yig'inlari davrida Davlat budjeti mablag'lari hisobidan bepul oziq-ovqat va yotoqxonalar bilan ta'minlanishi;

belgilanishicha, yurtimiz va buyuk ajdodlarimizning dunyo ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasini targ'ib etish maqsadida quyidagi xalqaro olimpiadalar o'tkazib borilishi;

millatlararo totuvlik va bag'rikenglik hissini shakllantirish, madaniy-ma'rifiy aloqalarni mustahkamlashga yo'naltirilgan Buyuk Sharq Renessansi xalqaro olimpiadasi;

Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika va informatika olimpiadasi;

Abu Rayhon Beruniy nomidagi xalqaro kimyo olimpiadasi;

Axmad al-Farg'oniy nomidagi xalqaro fizika olimpiadasi;

Abu Ali Ibn Sino nomidagi xalqaro biologiya olimpiadasi;

Markazga: nodavlat fan olimpiadalari va tanlovlarni tashkil etish hamda o'tkazish bilan bog'liq pullik xizmatlarni ko'rsatishga;

xalqaro tijoriy (pullik) va notijoriy fan olimpiadalari va tanlovlarni o'tkazishga;

mahalliy va xorijiy mutaxassislarni to'ridan-to'ri fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida jalb etishga ruxsat berilganligi;

Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi" 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga 3-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (O.Xo'jayev) manfaatdor bo'lim va idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30- sentabrdagi PQ-346-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov